

**MALAYZIYADA ZIYORAT TURIZMI: RIVOJLANISH,
DOLZARBLIK VA TAKLIFLAR**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti
Turizm yo'nalishi talabasi **Abdullayeva Madinabonu**
e-mail: madinaabdullayeva0406@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Malayziyada ziyorat turizmining rivojlanish jarayoni, uning statistikasiga asoslangan tahlili va O'zbekiston bilan hamkorlik masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Malayziyaning ziyorat turizmi infratuzilmasi, asosiy diniy maskanlari, sayyohlar oqimi va so'nggi yillarda kuzatilgan o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, pandemiya davridan keyin ziyorat turizmi qanday tiklanganligi va O'zbekiston hamda Malayziya o'rtasidagi ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlar tahlil qilingan. Maqolada mavjud muammolar ham ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, Malayziya, O'zbekiston, diniy maskanlar, statistik tahlil, pandemiya, xalqaro hamkorlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие паломнического туризма в Малайзии, проводится его статистический анализ, а также обсуждается сотрудничество с Узбекистаном. В исследовании рассматривается инфраструктура паломнического туризма в Малайзии, основные религиозные объекты, туристические потоки и недавние тенденции. Также анализируется восстановление паломнического туризма после пандемии и соглашения, направленные на укрепление туристических связей между Малайзией и Узбекистаном. В статье выявлены существующие проблемы и предложены решения для их устранения.

Kirish. Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyoning eng jadal rivojlanayotgan turizm markazlaridan biri bo'lib, ayniqsa ziyorat turizmi (Islamic tourism) sohasida dunyoda yetakchi o'rin tutadi. Dinlararo totuvlik va boy madaniy meros mamlakatni xalqaro ziyoratchilar uchun jozibador manzilga aylantirgan. Pandemiyadan keyingi davrda global miqyosda diniy va ma'rifiy turizmga bo'lgan talab ortayotgan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohani strategik drayverga aylantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-

6165-sonli Farmoni¹ hamda 2024-yil 12-yanvarda qabul qilingan **PF-135-sonli Farmoni** ijrosi doirasida mamlakatimizning islom dunyosidagi nufuzini oshirish va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni diversifikatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilandi². Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi ziyorat turizmi aloqalarini jadallashtirish, xususan, ikki davlat o'rtasida o'zaro ziyoratchilar oqimini shakllantirish, transport-logistika tizimini yaxshilash va infratuzilmani "Halol" standartlari asosida modernizatsiya qilish uchun ilmiy va amaliy zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Malayziya ziyorat turizmi tajribasini tahlil qilish va O'zbekiston bilan hamkorlik istiqbollari belgilash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ziyorat turizmi iqtisodiy barqarorlik, madaniy almashinuv va ijtimoiy birdamlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi besh yilda Malayziyaga kelgan ziyoratchilar sonida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan: 2019-yilda 26,1 million xalqaro sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2020-yilda pandemiya sababli 74% kamayish kuzatilgan³. 2021-2022-yillarda cheklovdan so'ng tiklanish jarayoni boshlanib, 2023-yilda ziyoratchilar oqimi 2019-yil darajasiga yaqinlashgan⁴.

O'zbekiston va Malayziya ziyorat turizmi sohasida muhim hamkorlardan biri hisoblanadi. Ikkala davlat ham islomiy madaniyat va merosga boy bo'lib, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ishlab chiqmoqda. O'zbekiston va Malayziya hukumatlari o'rtasida turizm, ayniqsa ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha bir necha kelishuvlar imzolangan. Jumladan, 2023-yilda Malayziyaning Turizm, san'at va madaniyat vazirligi va O'zbekistonning Turizm qo'mitasi o'rtasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik memorandumiga qo'l qo'yildi⁵. Ushbu kelishuvga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasida ziyoratchilar oqimini oshirish, diniy va madaniy tadbirlarni qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini yaxshilash rejalashtirilgan. Oxirgi yillarda O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi aviaqatnovlar soni oshib bormoqda. "Uzbekistan Airways" va Malayziyaning "Malaysia Airlines" aviakompaniyalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni.

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/5273245>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jonlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-135-sonli Farmoni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. URL: <https://lex.uz/docs/6731003>

³ Tourism Malaysia. (2020). *Malaysia Tourism Statistics 2019: Annual Performance Report*. Corporate Planning Division, Tourism Malaysia. URL: https://www.tourism.gov.my/files/uploads/tourism_highlights_2019.pdf

⁴ Islamic Tourism Centre (ITC). (2024). *Post-Pandemic Muslim Travel Travel Recovery and Trends in Malaysia (2023 Annual Review)*. Ministry of Tourism, Arts and Culture. URL: <https://itc.gov.my/resources/tourism-statistics/>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi. (2023). *O'zbekiston va Malayziya o'rtasida ziyorat turizmini rivojlantirishga oid ikki tomonlama strategik memorandum*. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA). URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-malayziya-turizm-sohasidagi-hamkorlikni-kengaytirmoqda_485632


Kuala-Lumpur – Toshkent yo‘nalishida doimiy reyslarni yo‘lga qo‘ydi⁶. Bu esa ikki davlat o‘rtasidagi ziyoratchilar va sayyohlar oqimini sezilarli darajada oshirdi. Malayziya va O‘zbekiston sayyohlik agentliklari o‘zaro hamkorlikda ziyorat turizmi bo‘yicha maxsus paketlarni ishlab chiqmoqda. Masalan, Malayziyalik musulmon sayyohlarga Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi islomiy meros obidalarini bo‘ylab ekskursiyalar taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek sayyohlari uchun Malayziyaning mashhur islomiy maskanlari – Putrajaya masjidi, Masjid Jamek va Kuala-Lumpurdagi Islom madaniy markazi kabi joylarga safarlar tashkil qilinmoqda. Malayziya va O‘zbekiston Islom olami bilan aloqalarini mustahkamlash uchun xalqaro diniy konferensiyalar, seminarlar va turizm forumlarini o‘tkazmoqda. 2022-yilda Malayziyada bo‘lib o‘tgan "Halal Tourism and Islamic Heritage" anjumanida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etib, O‘zbekistondagi ziyorat turizmining imkoniyatlari haqida taqdimot qildi⁷. O‘zbekiston va Malayziyaning ziyorat turizmi bo‘yicha hamkorligi juda katta salohiyatga ega. Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyoning islomiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi va o‘zining halol turizm tizimi bilan dunyoda yetakchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston esa Markaziy Osiyoning eng qadimiy islomiy meros maskanlariga ega. Bu esa ikki davlat o‘rtasida tabiiy hamkorlik zaminini yaratadi.

Biroq, ziyorat turizmini rivojlantirishda ba’zi muammolar ham mavjud: malayziyalik ziyoratchilar uchun O‘zbekistonda Halol turizm infratuzilmasi, jumladan, sertifikatlangan restoran va mehmonxonalarining soni oshirilishi, turistik marshrutlar sifati va transport logistikasini yaxshilash lozim. Kelajakda ikki davlatning ziyorat turizmi bo‘yicha hamkorligi yanada rivojlanib, O‘zbekiston va Malayziya islomiy sayyohlik markazlari sifatida dunyo miqyosida yanada mashhur bo‘lishi mumkin.

Malayziya ko‘p millatli va ko‘p dinli jamiyat bo‘lib, mamlakatdagi diniy turizm infratuzilmasi ham rang-barangdir. Quyidagi diagrammada turli dinlarga mansub ziyorat obyektlarining soni ko‘rsatilgan bo‘lib, ular diniy turizm rivojlanishidagi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi:

⁶ Uzbekistan Airways AJ Rasmiy Portali. (2023). *Toshkent – Kuala-Lumpur – Toshkent yo‘nalishidagi muntazam aviaqatnovlarning tiklanishi va kengaytirilishi to‘g‘risida*. URL: <https://www.uzairways.com/uz/press-center/news/toshkent-kuala-lumpur-toshkent-aviatashuvlar-tiklandi>

⁷ World Islamic Tourism Conference (WITC). (2022). *Proceedings of the 2nd International Conference on Halal Tourism and Islamic Heritage*. Kuala Lumpur: ITC. URL: <https://itc.gov.my/witc-2022-highlights-and-country-presentations/>



8

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, islomiy ziyorat maskanlari eng ko'p bo'lib, bu mamlakatning rasmiy dini islom ekanligi bilan bog'liq. Malayziyada islomiy me'morchilik namunalaridan bo'lgan Masjid Negara, Putra Masjidi va Kristal Masjidi singari obyektlar ichki va tashqi ziyoratchilarni jalb qiluvchi muhim markazlardir.

Malayziya aholisining etnik tarkibini hind, xitoy va boshqa millatlar tashkil etadi va ularning katta qismi buddizm, sikhizm, hinduizm, shuningdek, xristian dinlariga e'tiqod qiladi. Diagrammada Islom dini ziyoratgohlaridan keyingi o'rinda 120 dan ortiq Buddizm qadamjolari aks etgan. Kek Lok Si va Thean Hou ibodatxonalari mamlakatda eng ko'p tashrif buyuriladigan buddist maskanlari hisoblanadi. Bu Malayziyada xitoy va tay anklavlarining tarixiy merosi bilan bog'liqdir. Hindu ziyoratgohlari ham sezilarli darajada bo'lib, ularning eng mashhuri Batu G'orlari ibodatxonasi nafaqat hindu ziyoratchilari, balki, boshqa sayyohlar uchun ham katta qiziqish uyg'otadi. Xristian dini bilan bog'liq ziyorat maskanlari esa Malayziyaning tarixiy mustamlaka davri merosi bilan bog'liqdir. Malakka shahridagi Sent-Pol cherkovi va boshqa tarixiy ibodatxonalar eng muhim ziyorat maskanlaridan biri hisoblanadi. Sikhizm ziyoratgohlari boshqa diniy qadamjolariga nisbatan kamroq bo'lib, Gurdvara Sahib ibodatxonasi Malayziyaning eng yirik sikh ibodat maskanlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur ma'lumotlar Malayziyada diniy turizmning qanchalik keng qamrovli ekanligini, ziyorat obyektlarining esa turli dinlar vakillari uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, mamlakatning turizm strategiyasini yanada rivojlantirish hamda har bir diniy guruh uchun mos sharoitlar yaratish zaruratini ta'kidlaydi. Malayziya janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida diniy uyg'unlik mujassam bo'lgan davlat sifatida e'tirof etiladi. Misol uchun, Malayziyaning Malakka shahridagi "Harmony Street" ko'chasi turli

⁸ Department of National Heritage Malaysia. (2023). *National Register of Religious Heritage Sites and Places of Worship*. Ministry of Tourism, Arts and Culture. URL: <https://www.heritage.gov.my/index.php/en/heritage-register/religious-sites>

diniy ibodatxonalar, cherkov va masjidlarga yaqinligi, turli din va madaniyat vakillarining bir manzilda yashashi bilan tashrif buyuruvchilarni jalb qilib kelmoqda⁹.

Malayziyada ziyorat turizmining rivojlanishiga qaramay, kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Sharqiy Malayziyadagi ba'zi ziyorat maskanlarida yetarli jamoat transportlari va mehmonxona xizmatlari mavjud emas. Ijtimoiy tarmoqlar, turli turagentliklarning rasmiy sahifalarida Malayziyaning go'zal tabiati, dengizlarga tutash sohillari, tropik mevalari, milliy taomlari va an'analari e'tiborni tortishiga qaramasdan, diniy turizm marketingining cheklanganligi xalqaro turistlar sonining yanada kengayishiga to'sqinlik qiladi. Malayziya hukumati ziyorat turizmini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

- Ziyoratchilar uchun maxsus sayohat paketlari yaratish;
- Transport va mehmonxona xizmatlarini takomillashtirish;
- Madaniy va diniy festivallar – xalqaro miqyosda e'tiborni tortadigan madaniy tadbirlar va festivallar tashkil etish, ularga mezbonlik qilish;
- Jahon yoshlari bilan hamkorlikda turli ilmiy konferensiyalar, oromgohlar uchun chegirmalar va grantlar sonini ko'paytirish.

Malayziyada ziyorat turizmi yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, bu sohada hali ham foydalanilmagan imkoniyatlar ko'p. Mamlakatning turli dinlarga mansub ziyoratchilarni jalb qilish bo'yicha keng qamrovli strategiyaga ega ekanligini inobatga olsak, kelajakda ziyorat turizmini ekoturizm va sog'lomlashtirish turizmi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida sayyohlar uchun yanada qulay sharoit yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Malayziyada ziyorat turizmi iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim soha bo'lib, hukumat va turizm sohasi mutasaddilarining faol sa'y-harakatlari tufayli rivojlanmoqda. Pandemiya keyingi davrda bu soha yana jonlanib, xalqaro ziyoratchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratilmoqda. Rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ilg'or takliflar Malayziyaning global ziyorat turizmi bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz)*.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jonlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-135-sonli Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz)*.

⁹ UNESCO World Heritage Centre. (2008). *Historic Cities of the Straits of Malacca: Melaka and George Town* (Inscribed Property No. 1223). United Nations. URL: <https://whc.unesco.org/en/list/1223>

3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi rasmiy axboroti. (2023). *O'zbekiston va Malayziya o'rtasida ziyorat turizmini rivojlantirishga oid ikki tomonlama strategik memorandum*. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA).
4. CrescentRating & Mastercard. (2023). *Global Muslim Travel Index (GMTI) 2023*. Islamic Tourism Centre (ITC).
5. Department of Statistics Malaysia (DOSM). (2021). *Inbound Tourism Performance During COVID-19 Pandemic (2020)*. Official Portal of DOSM.
6. Henderson, J. (2020). *Islamic Heritage and Tourism Development*. Oxford University Press, pp. 112-134.
7. Islamic Tourism Centre (ITC). (2024). *Post-Pandemic Muslim Travel Recovery and Trends in Malaysia (2023 Annual Review)*. Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia.
8. Rahman, M. (2021). "Religious Tourism in Southeast Asia." *Journal of Tourism Studies*, 45(3), pp. 234-256.
9. Tourism Malaysia. (2020). *Malaysia Tourism Statistics 2019: Annual Performance Report*. Corporate Planning Division, Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia.
10. UNESCO World Heritage Centre. (2008). *Historic Cities of the Straits of Malacca: Melaka and George Town (Inscribed Property No. 1223)*. United Nations.